



UO'K:

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16969275>

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARНИ HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA IJODIY FAOLIYATNING ROLINI O'RGANISH

IJODIY FAOLIYATNING ROLINI O'RGANISH ИЗУЧЕНИЕ РОЛИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

STUDYING THE ROLE OF CREATIVE ACTIVITIES IN THE COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Qodirova Nozimaxon Qaxramonjon qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotation.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanirishda ijodiy faoliyatning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalarda tafakkur, tasavvur, nutq va emotsiyal-irodaviy sifatlar shakllanishi, shuningdek, shaxsiy rivojlanishning muhim jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, ijodiy faoliyat, tasavvur, estetik tarbiya, tafakkur, pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar.*

Аннотация.

В статье освещаются роль и значение творческой деятельности во всестороннем развитии детей дошкольного возраста. Посредством творческой деятельности анализируется формирование у детей мышления, воображения, речи, эмоционально-волевых качеств, а также важных сторон развития личности.

Ключевые слова: *Дошкольное образование, творческая деятельность, воображение, эстетическое воспитание, мышление, педагогический подход, инновационные методы.*

Annotation.

This article discusses the role and importance of creative activity in the comprehensive development of preschool children. The formation of thinking, imagination, speech and emotional-volitional qualities in children through creative activities, as well as important aspects of personal development, are analyzed.

Keywords: *Preschool education, creative activity, imagination, aesthetic education, thinking, pedagogical approach, innovative methods.*

Zamonaviy ta’lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu yosh davri bolaning shaxsiy, intellektual, ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishining poydevori qo‘yiladigan davr bo‘lib, uning kelajakdagi o‘quv faoliyatni va hayotiy muvaffaqiyati bevosita ushbu bosqichda shakllangan asosiy ko‘nikma va sifatlarga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ijodiy faoliyatni bolani har tomonlama rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri sifatida qarash zarur.

Ijodiy faoliyat – bu bolaning o‘z fikri, his-tuyg‘usi va dunyoqarashini ifoda etishga yo‘naltirilgan maqsadli jarayondir. Unga rasm chizish, haykal yasash, o‘yinlar, musiqiy mashg‘ulotlar, drama elementlari, hikoya tuzish va rolli o‘yinlar kiradi. Ushbu faoliyat turlari bola tafakkurining faollashishiga, tasavvuri va nutqining rivojlanishiga, mustaqil fikrlash va muammoni hal etish qobiliyatining shakllanishiga yordam beradi. Jahon miqyosidagi tadqiqotlar L.S. Vygotskiy, J. Piaget, H. Gardner shuni ko‘rsatadiki, bolalar ijodiy faoliyat orqali o‘z shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4457-son qarorida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash, erkin ifoda va estetik didni shakllantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab o‘tilgan. Bu esa, ijodiy faoliyatni tashkil etishda yangi, samarali pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanishni talab etadi. Maktabgacha yosh – bu bolaning psixik va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni faol o‘zlashtiradi, tafakkuri, tasavvuri va estetik didi shakllana boshlaydi. Shu sababli aynan shu bosqichda ijodkorlikning rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ijodkorlik – bu yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bo‘lgan muammoni noodatiy yo‘l bilan hal qilish, o‘zini erkin ifoda etish qobiliyatidir. Bu qibiliyatlar bolaning kelgusidagi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Psixolog olimlar L.S. Vygotskiy, J. Guilford, E. Torrens ijodkorlikni tafakkurning o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rib, u faqat san’at yoki adabiyotga oid emas, balki hayotning barcha sohalarida muhim deb hisoblaydi. Vygotskiy fikriga ko‘ra, ijodkorlik bolaning ichki dunyosining in’ikosi bo‘lib, uning tasavvur va emotsiyalarini shakllantiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san’at, drama, musiqiy faoliyat, konstruktiv o‘yinlar kabi ijodiy faoliyat turlarini rag‘batlantirish ularning shaxsiy taraqqiyotini jadallashtiradi.

Ijodkorlikni shakllantirishda oila, pedagog va atrof-muhitning roli juda muhim. Ota-onalar bolaning har qanday g‘oyasini qadrlashi, uni erkin fikrlashga undashi kerak. Pedagoglar esa innovatsion metodlar – masalan, muammoli vaziyatlar yaratish, fikr

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning rolini o'rganish

bo'roni texnikasi, erkin hikoya tuzish, rolli o'yinlar orqali bolani faol fikrlashga jalg etishlari zarur. Shuningdek, bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim. Har bir bolaning o'z qiziqishi, ijod qilish usuli, ritmi bor. Shuning uchun individual yondashuv ijodkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ijodkorlik – shaxsning barqaror shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim sifatdir. U bolaning hayotga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'zini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. Ijodiy faoliyat turlari orqali bola nafaqat san'atkorlik qobiliyatlarini, balki tafakkur, nutq, hissiyot, muomala, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tarbiya va o'qitish jarayonida ijodiy yondashuv, qulay psixologik muhit, erkin fikrlashga rag'batlantirish – ijodkorlikning asosiy omillaridir. Ijodiy faoliyat bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, o'z fikrini bildirishga intilishini kuchaytiradi va ijtimoiy faolligini ta'minlaydi. Shu asosda, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning ijodiy salohiyatini erta aniqlash, individual qobiliyatlarini rag'batlantirish va ijodiy faoliyatni samarali tashkil etish ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining har tomonlama amalga oshirilishi, ularning kognitiv, emotsiyal, ijtimoiy va jismoniy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon bo'lib, ijodiy faoliyat ushbu rivojlanishning markaziy tarkibiy qismiga aylanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalar ijodiy faoliyat orqali nafaqat o'zining estetik va ko'rish qobiliyatlarini rivojlantiradilar, balki ijtimoiy munosabatlar o'rnatish, muammolarni hal qilish va o'z fikrlarini ifodalashda muhim ko'nikmalarni egallaydilar. Ijodiy faoliyat, xususan, tasviriylar san'at, musiqiy va teatr faoliyatlarini bolalar psixologiyasida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday faoliyatlar bolalarning tasavvur doirasini kengaytiradi, ular orqali bolalar o'zining ichki dunyosini anglab, fikrlarini shakllantirish va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, ijodiy faoliyat bolalarda emotsiyal intellektni rivojlantiradi, ular o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalash va boshqalarning his-tuyg'ularini anglashda ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, ijodiy faoliyat bolalar uchun ijtimoiylashuv jarayonlarini ham yengillashtiradi. Guruhda ijodiy ishlar olib borish bolalar o'rtasida jamoaviy ruhni shakllantiradi va bir-birlariga nisbatan hurmat va hamkorlikni rivojlantiradi. Ijodiy faoliyatning bolalar psixologiyasiga ta'siri, shuningdek, ularning o'zlikni anglash, o'zini ifoda etish va shaxsiy rivojlanishidagi o'rni haqida ham muhim fikrlar ilgari suriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning o'rni beqiyosdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodiy faoliyat nafaqat bolalarning kognitiv va psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, balki ularning shaxsiy sifatlarini, ijtimoiy ko'nikmalarni va emotsiyal intellektlarini rivojlantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ijodiy faoliyatga e'tibor qaratish, bolalarning mustaqil fikrlash, tasavvur qilish va o'zini ifodalash qobiliyatlarini oshirishda muhim

ahamiyatga ega. Ijodiy faoliyat orqali bolalar estetik qadr-qimmatlarni tushunishga, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, shuningdek, ijtimoiy hamkorlik va birgalikda ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishadilar. Tadqiqotda shuningdek, ijodiy faoliyatning maktabgacha ta'limga muhim metodik vosita sifatida qo'llanilishi zarurligi ko'rsatilgan. Ijodiy faoliyat bolalar rivojlanishining barcha aspektlarini yaxshilash va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxsiy va ijtimoiy hayotlari uchun mustahkam asos yaratadi.

Xulosa qilganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahmiyati katta bo'lib, uni to'g'ri tashkil etish va rivojlantirish orqali bolalar psixologik, kognitiv va ijtimoiy jihatlarda o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Axmedova, Maktabgacha ta'limga metodikasi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, -2020y.
2. D.Sharipova, Ijodiy faoliyat asoslari va ularning bolalar rivojlanishidagi o'rni. Samarqand: "Ilm ziyo" nashriyoti, -2021y.
3. L.S.Vygotskiy, Tasavvur va ijodiylikning rivojlanishi. Moskva: Pedagogika, -1987y.
4. Z.Bekmurodova, "Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish usullari", Pedagogika va psixologiya jurnalı, №3, -2022y.
5. S.G'ulomova, Bolalarda estetik tarbiya va ijodkorlik. Toshkent: TDPU nashriyoti, -2019y.
6. <https://mdo.uz> — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va matab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
7. <https://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'limga portalı. Maktabgacha ta'limga bo'yicha metodik materiallar.